

## OLIV O‘QUV YURLARIDA MASHG‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O‘RNI

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi*

***Shayqulov Hamza Shodievich***

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti sud tibbiyoti kafedrasida dotsenti*

***Rasulova Muxsina Roziqovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand Davlat tibbiyot universitetida ta’lim sifatini oshirish uchun ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda ilmiy maqolalardan foydalanish xususida fikr yuritilgan. Bunda mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya, sud tibbiyoti, umumiy gigiyena, odam anatomiyasi va epidemiologiya kafedralarida faoliyat olib borayotgan professor – o‘qituvchilarning mashg‘ulotlarda foydalangan maqolalari asos qilib olingan.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, oliy o‘quv yurtlarida mashg‘ulotlar, mashg‘ulotlar sifati, mashg‘ulotlar samaradorligi, ilmiy maqolalar.

Prezident Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabr kuni Toshkentdagi Kongress-xollda parlamentga Murojaatnoma yo‘lladi. U o‘z chiqishida kelgusi 2023 yilgi «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili» deb nom berishni taklif qildi.

Prezidentimiz ta’kidladiki, **ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir:** Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek, “Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”.

Ma’lumotlarga qaraganda ta’lim saviyasining 1%ga oshishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini 5-6%ga o‘shirishni ta’minlar ekan (J.Xamraqulov 2011). Keyingi yillarda respublikada oliy o‘quv yurti talabalari soni ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimi iqtisodiyotni erkinlashuvi bosqichida shunday darajada bo‘lishi kerakki, xalqaro miqyosda fan, texnika, yuksak texnologiyalar sohasidagi so‘nggi yutuqlar va mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalarini hisobga olib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlashga qodir bo‘lishi lozim.

Oliy kasbiy ta’limni sifatini oshirishda talabalarni nafaqat zamonaviy ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, balki bo‘lajak mutaxassislarda qiziquvchanlikni har tomonlama rivojlantirish, amaliy masalalarni ijodiy hal etish qobiliyatini rivojlantirish, uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Talabalarning bilish faolligini oshirishning asosiy usullaridan biri mashg‘ulotlarda muammoli vazifalar va vaziyatlarni shakllantirishdir. Mashg‘ulotlar mazmunida ushbu fanning boshqa fanlarni o‘rganish va kelajakdagi tibbiy faoliyat

bilan bog‘liqligini ta’kidlash juda muhimdir. Ta’lim jarayonida mashg‘ulotlar ilmiy axborotlarga, mantiqiy fikirlashga, vaziyatning murakkabligi va vaqtning cheklanganligi kabi omillarga asoslanib uslublar tanlanadi va tashkillashtiriladi. Har qanday o‘quv mashg‘ulotlar ilmiy tadqiqot usullarini o‘z ichiga olgan kasbiy fazilatlar va fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishga hissa qo‘shishi kerak. Mashg‘ulotlarda qo‘yilgan muammolar talabalarning qobiliyatiga, fikrlash darajasiga mos kelishi kerak. Mashg‘ulotlarda ilmiy muammolardan foydalanish ma’lum pedagogik vazifalarni hal etishga: diqqatni faollashtirish, qiziqish uyg‘otish, tafakkurni rivojlantirish va ilmiy tadqiqot usullarini o‘zlashtirishga bog‘liq. Bunda axborotlarni bilimga aylantirish ta’lim tizimining tuzilmaviy bo‘g‘iniga aylanadi. Ya’ni mashg‘ulotlarda ilmiy - muammoli vazifalardan foydalanish talabalarning bilish faoliyatini boshqarishning muhim vositasidir. Mashg‘ulotlarda qo‘yilgan muammoli vazifalar laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda davom ettirilishi shart.

**Ishning maqsadi:** Mashg‘ulotlarni ilmiy muammolarga bag‘ishlangan maqolalar asosida olib borish natijasida faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish.

**Ish uslubi:** Yuqoridagi talablarni bajarish maqsadida Samarqand Davlat meditsina universitetining ko‘pchilik kafedra professor o‘qituvchilari ta’lim olayotgan baklavlrlar uchun o‘z ish rejalarini ishlab chiqishdilar. Bunda mashg‘ulot mavzusi, maqsad va vazifalari aniqlangandan so‘ng, shu mavzuga mos ilmiy maqola tanlanib, interfaol usullar yordamida tahlil qilinadi. Faol talabalar tashabbusiga ko‘ra shu ma’lumotlar asosida slaydlar yoki tarqatma materiallarini tayyorlaydilar va mavzuni yoritib berishga harakat qiladilar. Qolgan talabalar mavzu bo‘yicha savollar berib, mavzuni to‘liqroq o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Bunda moderator “yulduz” sifatida emas, yo‘naltiruvchi - fassilitator bo‘lib ishtirok etadi. Seminar darslar reja asosida 2 yoki 4 akademik soat davom etadi, seminar oxirida moderator yakun yasab, kerakli asosiy masallalarni o‘zi yana bir marotaba yoritib beradi.

**Olingan natijalar:** Mikrobiologiya, virusologiya va imunologiya fanidan ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkizilishi jarayonida antibiotiklar va antibakterial kimyoviy vositalar mavzusini o‘tishda K. S. Boltaev, A. M. Vaxidova, G. N. Xudayarovalar “Exinokokk pufakchalari tarkibidagi mikrofloralarni antibiotiklarga nisbatan sezgirligini aniqlash”; F. A. Jamalova organizmning nomaxsus immuniteti mavzusida “Sink va yaralarni erta bitishi: fiziologiyasi va klinik qo‘llanishi”; M. I. Yusupov, G. M. Odilova, X. Sh. Shaykulovlar disbakterioz mavzusida “Chaqaloqlarda stafilokokklar tufayli diareyalarning klinik va bakteriologik xususiyatlari”; D. A. Xujakulov infeksiya mavzusida “Og‘iz bo‘shlig‘i infeksiyalari”; D. G‘. Annaeva, U. A. Azzamov mikroorganizmlarning sof kulturasi ajratib olish mavzusida “Oddiy sachratqi o‘simligidan endofit mikroorganizmlar ajratib olish” kabi ilmiy maqolalardan foydalangan holda mavzularni yoritishdi. Xuddi shunday Nurimov P. B., Bobokandova M. F. fiziologiya fanida: Xusanov E. U, Korjavov Sh. O,

Suleymanov R. I. odam anatomiyasi fanida; Baratova R.Sh, Xidirov N.Ch, Kiyamov I.E. Umumiy gigiena fanida; Rasulova M.R. Sud tibbiyoti fanida; Murodkosimov S.M. “epidemiologiya” fanidan mavzularni o‘tishda ilmiy maqolalardan foydalanib talabalarda yangicha qiziqishlar paydo bo‘lishiga erishdilar.

**Xulosa:** Shunday qilib ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda dolzarb bo‘lgan ilmiy ma’qolalardan foydalanish hamda vaziyatli masalalarni muhokama qilish talabalarda mavzuga nisbatan yanada qiziqishni oshirishga va mavzularni yaxshiroq o‘zlashtirishga imkon berdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вахидова Адолат Маматкуловна, Худаярова Гавхар Нурмаматовна, Болтаев Комил Султанович Исследование микрофлоры содержимого эхинококковых пузырей по морфологическому соотношению и определение ее чувствительности к антибиотикам // Academy. 2020. №7 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-mikroflory-soderzhimogo-ehinokokkovykh-puzyrey-po-morfologicheskomu-sootnosheniyu-i-opredelenie-ee-chuvstvitelnosti-k> (дата обращения: 31.12.2022).
2. Жамалова Ф. А. и др. Цинк И Заживление Ран: Обзор Физиологии И Клинического Применения //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 33-40.
3. Нуримов П. Б., Бобокандова М. Ф. Особенности развития соматотропной функции гипофиза и надпочечников у мальчиков-подростков //Новый день в медицине. – 2022. – №. 2. – С. 40.
4. Одилова, Г., Шайкулов, Х., & Юсупов, М. (2022). Клинико-бактериологическая характеристика стафилококковых диарей у детей грудного возраста. Журнал вестник врача, 1(4), 71–74. <https://doi.org/10.38095/2181-466X-2020974-70-73>
5. Хужакулов, Д. А. Инфекции полости рта при ВИЧ-инфекции и СПИДА / Д. А. Хужакулов, З. Т. Муратова // Молодежь и медицинская наука в XXI веке : Сборник трудов XVIII Всероссийской научной конференции студентов и молодых ученых с международным участием, Киров, 12–14 апреля 2017 года / Под редакцией И.В. Шешунова, Н.К. Мазиной, Ю.В. Кислицына. – Киров: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Кировский государственный медицинский университет" Министерства здравоохранения Российской Федерации, 2017. – С. 165. – EDN YPGMBN.
6. Хусанов Эркин Уктамович, Коржавов Шерали Облакулович, Сулейманов Ремзи Ибрагимович Исследование экскреции лактата кожей в зависимости от различных факторов // Re-health journal. 2019. №2. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-ekskretsii-laktata-kozhey-v-zavisimosti-ot-razlichnyh-faktorov> (дата обращения: 31.12.2022).

7. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

8. Annayeva, Dildora G‘Yosovna, Azzamov, Ulug‘Bek, Annayev, Muhridin ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLISH // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oddiy-sachratqi-cichorium-intybus-l-o-simligidan-endofit-mikroorganizmlar-ajratib-olish> (дата обращения: 31.12.2022).

9. Balayan E. Impact of globalisation transformations on the constitutional and legal regulation of a personal legal status //Revista Inclusiones. – 2020. – С. 122-142.

10. Baratova R.Sh, Xidirov N.Ch, & Kiyamov I.E. (2022). Environmentally Friendly Product is a Pledge of Our Health. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 48–50. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/1886>

11. Mamarasulova N. I., Yusupov M. I., Sh S. H. YANGI ELEKTRON O‘QITISH TIZIMI BIZGA QANDAY IMKONIYATLAR BERDI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 9. – №. 2. – С. 19-23.

12. Mamedov, . A. (2022). METHODS OF TREATMENT AND DIAGNOSIS OF LICHEN PLANUS . Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(3), 59–61. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1272>

13. Rasulova Mukhsina Razikovna Forensic examination of fractures of the bones of the nose // European science review. 2018. №7-8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/forensic-examination-of-fractures-of-the-bones-of-the-nose> (дата обращения: 31.12.2022).

14. Saidolim M., Ermanov R., Asamidin M. PREVENTION OF INFECTION OF THE POPULATION OF SAMARKAND REGION WITH HIV INFECTION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1112-1116.